

MUROJAATNOMA-TARAQQIYOT YO‘LIMIZNING MUHIM DASTURI

Xoliqov Shoxrux Ikromali o‘g‘li

Toshkent davlat yuridik universiteti

Ommaviy huquq fakulteti tyutori

2-darajali yurist

Shohruxxoliqov97@gmail.com

Davlat jamiyat taraqqiyotining muhim instituti sifatida avvalo jamiyatda tinchlik va tartibni ta’minlash, ijtimoiy barqarorlikni saqlash hamda umumiy manfaatlarni muvofiqlashtirish vazifasini bajaradi. Tinchlik va huquqiy tartib mavjud bo‘lmagan jamiyatda na iqtisodiy rivojlanish, na ijtimoiy adolat, na shaxs erkinligi to‘laonli ta’minlanishi mumkin. Shu bois davlatning mavjudligi va samarali faoliyati jamiyat hayotida zaruriy shart sifatida namoyon bo‘ladi. Biroq zamonaviy demokratik qarashlarga ko‘ra, davlatning pirovard va oliy maqsadi faqatgina tartib o‘rnatish bilangina cheklanmaydi. Uning asl vazifasi jamiyat a’zosi bo‘lmish insonning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini himoya qilish, inson qadr-qimmatini oliy qadriyat sifatida e’tirof etishdan iboratdir.

Aynan inson manfaatlari davlat faoliyatining markazida turishi zarurligi bugungi islohotlar zaruriyatining asosini tashkil etadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2025-yil dekabr oyida Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga yo‘llagan Murojaatnomasi ham ana shu g‘oyaning mantiqiy davomi bo‘lib, uni “taraqqiyot yo‘limizning muhim dasturi” sifatida baholash mumkin. Mazkur Murojaatnomada davlat boshqaruvi, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, mahalliy boshqaruv va inson manfaatlarini ta’minlashga qaratilgan ustuvor vazifalar aniq belgilab berilgan.

Inson huquqlari va davlat g‘oyasi:

Liberalizm ruhidagi demokratik islohotlar g‘oyasining yorqin namoyandalaridan biri bo‘lgan Immanuel Kant inson huquqlarini umumiy va universal tamoyil sifatida qo‘llagan

siyosiy mutafakkirlardan edi. Kantning fikricha, davlatdagi qonunlar xalq irodasini ifodalashi lozim, chunki qonun ustuvorligi va adolat aynan xalq irodasiga tayangandagina legitim bo‘la oladi. Shu bilan birga, Kant barcha fuqarolarga teng saylov huquqi berish masalasida ehtiyotkor pozitsiyada bo‘lgan.

Uning qarashlariga ko‘ra, moddiy jihatdan mustaqil bo‘lgan fuqarolargina haqiqiy ma’noda “faol fuqarolar” sifatida jamiyatda madaniy, kitobsevar va munozaraga qodir ommani shakllantira oladi. Kant moddiy jihatdan qaram bo‘lgan shaxslar ko‘proq kundalik ehtiyojlarni qondirish tashvishi bilan band bo‘lib, davlat va jamiyat boshqaruvida yetarli darajada mustaqil pozitsiya namoyon qila olmaydi, deb hisoblagan.

Mazkur yondashuvga bugungi nuqtayi nazardan qisman qo‘shilish mumkin. Darhaqiqat, aholining moddiy jihatdan ehtiyojmand bo‘lmagan qismigina o‘zining asosiy hayotiy ehtiyojlarini qondirish tashvishidan chekinib, jamiyat va davlat ishlarida faol ishtirok etish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu ishtirok saylov huquqi orqali bilvosita boshqaruvda qatnashish yoki referendumlar orqali bevosita demokratiya shaklida namoyon bo‘lishi mumkin.

Amaliy hayot shuni ko‘rsatmoqdaki, moddiy ahvoli nisbatan barqaror bo‘lgan aholi qatlami o‘zi ovoz berayotgan deputat nomzodining shaxsiga, uning faoliyatiga va dasturiga chuqurroq qiziqadi. Bunday saylovchi nomzod tomonidan ilgari surilayotgan islohotlarning qanchalik real va amalga oshiriladigan ekanini tahlil qiladi, jamiyat hayotida bo‘lishi kutilayotgan o‘zgarishlarga ongli ravishda baho beradi. Eng muhimi, u o‘zini faqat tomoshabin emas, balki jamiyat a’zosi sifatida bu jarayonlarda o‘z hissasi va mas’uliyati borligini anglaydi.

Aksincha, aholining kundalik ehtiyojlar bilan bog‘liq muammolari hal etilmagan qatlamida fuqaro faolligi nisbatan sust bo‘lishi kuzatiladi. Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlardagi muhokamalarning katta qismi olib borilayotgan tizimli islohotlarning mazmun-mohiyatini tahlil qilishdan ko‘ra, kommunal xizmatlar sifati, yo‘llarning ahvoli, uy-joy masalalari, transport ta’minoti, bog‘cha va maktablardagi, oilaviy poliklinikalardagi sharoitlar kabi masalalarga qaratilmoqda. Bir so‘z bilan aytganda,

muho-kamalar asosan mahalla infratuzilmasini yaxshilash bilan bog‘liq masalalar doirasida qolib ketmoqda.

Bu holat tasodifiy emas. Chunki inson o‘zining eng asosiy ehtiyojlari qondirilmaguncha, yuksak siyosiy va huquqiy masalalar haqida chuqur mulohaza yuritishga yetarli imkon topa olmaydi.

Murojaatnoma va mahalla tizimining ustuvorligi

Aynan shu tufayli Prezident Sh.M.Mirziyoyevning 2025-yil dekabr oyida Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga yo‘llagan Murojaatnomasida 2026-yilda amalga oshiriladigan **eng muhim 6 ta ustuvor yo‘nalishdan birinchisi** sifatida mahalla infratuzilmasini yanada yaxshilash, ularga “Yangi O‘zbekiston” qiyofasini olib kirish vazifasi belgilandi. Bu yondashuv bevosita inson manfaatlari va kundalik hayot sifati bilan bog‘liq bo‘lib, islohotlarning real natijadorligini ta‘minlashga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

Murojaatnomada mahallaning moddiy va tashkiliy imkoniyatlarini kengaytirish bo‘yicha aniq moliyaviy mexanizmlar nazarda tutilgan. Jumladan, har bir deputatga o‘z saylov okrugidagi muammolarni hal etish uchun **3,3 milliard so‘mdan** mablag‘ ajratilishi belgilandi. Bundan tashqari, “Yashil hudud”larni barpo etish maqsadida **330 million so‘mdan** qo‘shimcha mablag‘ yo‘naltiriladi. Mahalla raisi, hokim yordamchisi va mahalla bankirlariga infratuzilmani yaxshilash bo‘yicha asoslantirilgan loyihalar ishlab chiqish va ular uchun zarur mablag‘larni jalb etish imkoniyati yaratildi. Xususan, 2026-yilda **40 mingga yaqin mikroloyihani amalga oshirish va 360 ming nafar aholini ish bilan ta‘minlash** uchun **7,5 trillion so‘m** ajratilishi belgilandi.

Xotin-qizlar sporti infratuzilmasini rivojlantirish bo‘yicha uch yillik dastur doirasida 1 trillion so‘m yo‘naltirilishi, maktab kutubxonalarini har yili 10 million dona badiiy adabiyot bilan ta‘minlash tashabbuslari jamiyat ma‘naviy salohiyatini yuksaltirishga xizmat qiladi. Bu chora-tadbirlar “sog‘lom inson – sog‘lom jamiyat” g‘oyasining amaliy ifodasidir.

Iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirish — ikkinchi ustuvor yo‘nalish

Murojaatnomada belgilangan ikkinchi ustuvor yo‘nalish iqtisodiyotni **texnologik va innovatsion o‘shish modeliga o‘tkazish**dan iborat. Qulay biznes muhiti, barqaror demografik o‘shish va inson kapitaliga berilayotgan e‘tibor O‘zbekistonni investorlar uchun jozibador mamlakatga aylantirmoqda. So‘nggi yillarda iqtisodiyotning turli tarmoqlariga 130 milliard dollar xorijiy investitsiya jalb etilgani, 2026-yilda esa 50 milliard dollar investitsiya olib kirish rejalashtirilayotgani buning yaqqol dalilidir.

Endilikda har bir dollar investitsiya ilg‘or texnologiyalarni joriy etish, yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish, resurslardan samarali foydalanish va mahalliy kadrlarning malakasini oshirishga xizmat qilishi kerak. Shu ma’noda yuqori texnologiya va yangi kompetensiyalar olib kirgan, eksportga yo‘naltirilgan investorlar eng ishonchli hamkor sifatida e‘tirof etilmoqda.

Ichki talabni rag‘batlantirish va turizmni rivojlantirish — uchinchi ustuvor yo‘nalish

Uchinchi ustuvor yo‘nalish ichki bozorda talabni rag‘batlantirishga qaratilgan. Bu borada inflyatsiya darajasini barqarorlashtirish, aholining real daromadlarini oshirish va xizmatlar sifatini yaxshilash muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, turizm infratuzilmasini rivojlantirish ichki talabni oshiruvchi muhim omil sifatida qaralmoqda.

Samarqand shahrida Bibixonim, Registon majmuasi, Amir Temur maqbarasi, Ulug‘bek rasadxonasi, Shohi Zinda va Afrosiyob muzeyini bog‘lovchi zamonaviy yo‘laklar va ko‘priklar barpo etilishi, shuningdek, Janubiy Koreyaning “Hyundai Rotem” kompaniyasidan tezyurar poyezdlar olib kelinishi mamlakatning turistik salohiyatini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Kadrlar tayyorlash va mehnat bozori — to‘rtinchi ustuvor yo‘nalish

To‘rtinchi ustuvor yo‘nalish kasblarni rivojlantirish va yangi mehnat bozori arxitekturasini shakllantirishdan iborat. Yoshlarni erta kasbga yo‘naltirish, 9-sinf bitiruvchilarini qiziqish va qobiliyatiga qarab saralash, texnikumlar tizimini rivojlantirish ushbu yo‘nalishning asosiy mazmunini tashkil etadi.

2026-yildan boshlab texnikumlarda tahsil olayotgan 100 ming nafar o‘quvchiga stipendiya joriy etilishi, aniq fanlar bo‘yicha yangi oliygohlar tashkil etilishi va sog‘liqni saqlash tizimiga yo‘naltirilayotgan 3,5 trillion so‘mlik mablag‘lar inson kapitalini mustahkamlashga qaratilgan strategik choralar sifatida namoyon bo‘ladi.

Ekologik barqarorlik va “yashil” iqtisodiyot — beshinchi ustuvor yo‘nalish

Beshinchi ustuvor yo‘nalish ekologik muvozanatni ta‘minlash, “yashil” energetika va suv resurslaridan oqilona foydalanishga bag‘ishlangan. Elektromobillarni rivojlantirish, jamoat transportini modernizatsiya qilish, “yashil makon” va “yashil devor” loyihalarini amalga oshirish mamlakatda barqaror ekologik muhit yaratishga xizmat qiladi.

Zamonaviy davlat boshqaruvi va adolatli sud-huquq tizimi — oltinchi ustuvor yo‘nalish

Oltinchi ustuvor yo‘nalish zamonaviy davlat boshqaruvi va adolatli sud-huquq tizimini shakllantirishga qaratilgan. Elektron hukumat platformasini tubdan yangilash, davlat xizmatlarini raqamlashtirish, sun‘iy intellekt asosida murojaatlarni ko‘rib chiqish tizimini joriy etish inson omilini kamaytirib, shaffoflik va hisobdorlikni kuchaytiradi.

Shuningdek, tergov sudyalari institutining rivojlanishi, odil sudlovda jamoatchilik ishtirokining kengayishi va korrupsiyadan xoli boshqaruv tizimini yaratish huquqiy davlat barpo etish yo‘lidagi muhim qadamlardir.

Xulosa qilib aytganda, 2025-yilgi Murojaatnoma O‘zbekiston taraqqiyotining yaqin va o‘rta muddatli strategik yo‘nalishlarini belgilab beruvchi kompleks dasturdir. Unda mahalla infratuzilmasidan tortib, innovatsion iqtisodiyot, inson kapitali, ekologik barqarorlik va adolatli davlat boshqaruvigacha bo‘lgan barcha ustuvor vazifalar yagona mantiqiy tizimda mujassam etilgan. Ushbu islohotlarning markazida inson manfaatlari, huquq va erkinliklarini ta‘minlash g‘oyasi turibdi. Tinchlik hukm surgan, qonun ustuvor bo‘lgan va fuqarolar xavfsizligi kafolatlangan jamiyatda investitsiya ham, turizm ham, barqaror taraqqiyot ham izchil rivojlanadi.